




FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



FARG'ONA VILOYATIDA O'RTA-MAXSUS, PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



Farg'ona viloyatida o'rta maxsus professional ta'lim tizimi

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida, 2022/2023 o'quv yilidan boshlab, O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Ma'lumot uchun: Milliy ta'lim tizimlarining tuzilishi va ta'lim dasturlari mazmuni xilma-xilligi tufayli turli mamlakatlarning erishgan natijalarini taqqoslash solishtirish va ularning milliy va xalqaro miqyosidagi maqsadlar sari olg'a siljishini kuzatish qiyin bo'lishi mumkin. Global miqyosda ta'lim tizimlarining jihatlari va jarayonlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish uchun ma'lumotlarning solishtirilishini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Bunga xalqaro miqyosda taqqoslanadigan statistik ma'lumotlarni tasniflash va taqdim etish uchun kontseptual hujjat - Ta'limning Xalqaro Standart Klassifikatsiyasidan (TXST) foydalanish orqali erishish mumkin.

TXST-2011 tasnifi 2011-yil noyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 36-sessiyasida qabul qilingan. Dastlab YUNESKO tomonidan 1970- yillarda ishlab chiqilgan va birinchi marta 1997- yilda qayta ko'rib chiqilgan TXST tasnifi milliy va xalqaro miqyosda ta'lim statistikasini yig'ish va taqdim etish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimidagi yangiliklarni yanada aniqroq aks ettirish uchun vaqti-vaqti bilan yangilanib turiladi.

Farg'ona viloyatida o'rta maxsus, professional ta'limi tizimi

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim

**Boshlang'ich
professional
ta'lim**



**O'rta professional
ta'lim**



**O'rta maxsus
professional
ta'lim**



Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.


O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarida umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.


FARG'ONA VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Akademik litseylar soni, birlikda (o'quv yili boshiga)

Ma'lumot uchun: O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.




Hududlar kesimida akademik litseylar soni, birlikda (o'quv yili boshida)




FARG'ONA VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni (o'quv yili boshiga ming kishi)



Akademik litsey o'quvchilarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi (2022/2023 o'quv yili boshida ming kishi)



Farg'ona viloyatida **2022/2023** o'quv yili boshida akademik litseylarda jami **63,3** ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Hududlar bo'yicha, Farg'ona shahrida o'quvchilar soni boshqa shahrlarga nisbatan ko'proq (**34,3** ming kishi).

FARG'ONA VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


**Qiz bolalar
37,4 %**



Agar akademik litseylardagi barcha o'quvchilarni 100 foiz deb olinsa, ularning **37,4%** qizlar, **62,7 %**ini o'g'il bolalar tashkil etadi.

**O'g'il bolalar
62,6%.**


Akademik litsey o'quvchilarining hududlar bo'yicha gender taqsimoti, % (2022/2023 o'quv yili boshida)




FARG'ONA VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Akademik litsey o'qituvchilari (o'quv yili boshida, kishi)

Tumanlar bo'yicha




Farg'ona viloyati



2022-yilda akademik litseylarda dars beradigan o'qituvchilar soni 2021-yilga nisbatan **73** nafarga yoki **1,6** foizga ko'paydi va **234** nafarni tashkil etdi. Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Farg'ona shahrida – **210** nafar, eng kami Qo'qon shahrida **24** kishi qayd etilgan.

2021/2022- y.

2022/2023- y.




Akademik litseylar o'qituvchilarining gender taqsimoti

(2022/2023 o'quv yili boshiga)

Akademik litseylarda jami o'qituvchilar soni **100** foiz deb olinsa, ularning **1,6** foizini ayollar, **0,79** foizini erkaklar tashkil etadi.

O'qituvchilarning hududlar bo'yicha gender taqsimoti, kishi



FARG'ONA VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Ma'lumot uchun: Kasb-hunar maktablarida kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.


Kasb-hunar maktablari soni, birlikda



2022- yil → 2023- yil

Kasb-hunar maktablarini hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda*

(2022/2023 o'quv yili boshiga)




2022/2023 o'quv yili boshida Farg'ona viloyatida **32** ta kasb-hunar maktablari mavjud bo'lib, ularning eng ko'p soni Fargona shahrida (**2**ta), eng kami — So'x tumanida qayd etilgan,(**1**ta).

*shu jumladan madaniyat va san'at maktablarining qo'shgan holda


FARG'ONA VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarning taqsimlanishi, ming kishi (o'quv yili boshiga)

Tumanlar bo'yicha
2022/2023 o'quv yili boshiga



Farg'ona viloyati



2022/2023 o'quv yili boshida kasb-hunar ta'limi muassasalarida **26115** ming o'quvchi tahsil olmoqda. Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Uchko'prik tumani – **2026** ming nafar, eng kami Furqat tumani – **745** ming nafar.

FARG'ONA VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Agar kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi barcha o'quvchilar **100** foiz deb olinsa, ularning **24,4** foizini qizlar, **75,1** foizini o'g'il bolalar tashkil etadi.



Qiz bolalar
24,4 %


O'g'il bolalar
75,1 %

**Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining
hududlar bo'yicha gender taqsimoti, % da**
(2022/2023 o'quv yili boshida)




**Kasb-hunar maktablarida faoliyat yuritayotgan
o'qituvchilarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(o'quv yili boshida, o'rindoshlarsiz)

Farg'ona viloyati



■ 2021/2022 ■ 2020/2021




2023- yilda kasb-hunar maktablarida dars beradigan o'qituvchilar soni 2022- yilga nisbatan **211** nafarga yoki **1,17** barobarga ko'payib, **1403** nafarni tashkil etdi.

Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Besariq tumanida – **177** nafar, eng kami – Furqat tumanida – **31** kishi qayd etilgan.



FARG'ONA VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kollejlar soni, birlikda (o'quv yili boshiga)

Tumanlar bo'yicha



Farg'ona viloyati




2022/2023 o'quv yili boshida **21** ta kollej mavjud bo'lib, hududlar bo'yicha eng ko'pi Farg'ona sahrida (**4** birlik), eng kabi So'x tumanida **1**ta (**20** birlik) qayd etilgan.



FARG'ONA VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kollej o'quvchilarining taqsimlanishi, ming kishi (2022/2023 o'quv yili boshiga)

Tumanlar bo'yicha




Farg'ona viloyati



2022/2023 o'quv yili boshida Farg'ona viloyatidagi **22** ta kollejda **14,9** ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Quvasoy sahrida (**3,5** ming o'quvchi), eng kam ko'rsatkich Qo'staha tumanida (**1,7** ming kishi) qayd etilgan.


Kollej o'qituvchilarining taqsimlanishi
(o'quv yili boshiga)

Tumanlar bo'yicha



■ 2021/2022 ■ 2022/2023

Farg'ona viloyati





2022/2023 o'quv yili boshida kollejlarda **443** nafar (o'rindoshlarsiz) o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich **2022-** yilga nisbatan (**90** nafar) **5,3** foizga kamaygan.

FARG'ONA VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Texnikumlarni hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda (o'quv yili boshiga)



Farg'ona viloyati




Farg'ona viloyatida **2022/2023** o'quv yili boshida texnikumlar soni **23** tani tashkil etdi, **2021/2022** o'quv yili boshiga nisbatan **2** taga ko'paydi.




Texnikum talabalarining taqsimlanishi, ming kishi
(o'quv yili boshiga)

Tumanlar bo'yicha




Farg'ona viloyati




2022/2023 o'quv yili boshida Farg'ona viloyatidagi texnikumlarda **11755** ming talaba tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Marg'ilon S (**0,6 ming**), eng past ko'rsatkich Dang'ara tumani (**0,1** ming) qayd etilgan.

Texnikum o'qituvchilari soni, kishi
(o'quv yili boshida)

Tumanlar bo'yicha



Fargona viloyati



2021/2022 o'quv yili boshida texnikumlarda **383** nafar o'qituvchi faoliyat yuritgan, bu o'tgan o'quv yiliga (**3793** nafar) nisbatan **1,3** barobar ko'pdir. Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Marg'ilon sh – **116** nafar, eng kami –Dang'ara tumani – **0,1** nafar qayd etildi.

Statistik ko'rsatkichlarga izoh

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimi – boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional, kasb-hunar ta'limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlaydigan akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlardan iborat bo'ladi.

Akademik litsey – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqiy imkoniyatini beradi.

Professional ta'lim – ta'lim oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetentsiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta'lim tizimi.

Kasb-hunar maktabi — Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Kollejlari — Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Texnikumlar — Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.